

**YAPON TILIDA MULOQOT MADANIYATINING ASOSIY
TAMOYILLARINI O'RGATISHDA DIDAKTIK USULLARI**

Nuraliyev Sardor Faxriddin o'gli

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili yo'nalishi talabasi.

sardornuraliyev344@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada yapon tilida muloqot madaniyatini shakllantirishda qo'llaniladigan didaktik usullar va metodlarning samaradorligi, bu predmet doirasida yapon tilini o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun foydalaniladigan usullar, masalan, interfaol mashqlar, rolli o'yinlar, guruhviy faoliyatlar va ijtimoiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni tahlil qilish va ularning o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishdagi roli o'rganildi.*

KIRISH

Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tillarni, xususan, yapon tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Yapon tili nafaqat fonetik va grammatik jihatdan murakkabligi, balki o'ziga xos muloqot madaniyati bilan ham ajralib turadi. Yapon jamiyatida hurmat, muomala odoblari va ijtimoiy iyerarxiyaga asoslangan so'zlashuv uslubi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois yapon tilini o'rgatishda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki muloqot madaniyatini shakllantirish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mazkur jarayonda didaktik usullarning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi til o'rganuvchilarda nafaqat grammatik kompetensiyani, balki kommunikativ, madaniy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol va madaniy jihatdan yo'naltirilgan dars uslublari yapon tilida samarali va odobli muloqot qilishni egallashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, yapon tilida muloqot



madaniyatini shakllantirishda didaktik usullarni chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish — zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yapon tilini o'rganish va o'rgatishda muloqot madaniyatining shakllanishi masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Ayniqsa, til va madaniyat uyg'unligi, kommunikativ yondashuv, hamda didaktik metodlarning amaliy qo'llanilishi sohalarida ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Masalan, yapon olimlari K. Nishimura va Y. Tanakalar o'z tadqiqotlarida yapon tilidagi muloqot odoblari, keigo (hurmatli nutq shakllari) tizimi, va ijtimoiy vaziyatga mos ravishda so'zlashish ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ular til o'rgatishda madaniy kontekstni tushunish asosiy shartlardan biri ekanligini ilgari suradilar.

Didaktika (yunoncha “didaktikos” – o'qituvchi, ta'lim beruvchi) – bu pedagogikaning bir bo'limi bo'lib, ta'lim va o'qitish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. U o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradigan usullar, vositalar va tamoyillarni ishlab chiqadi. Didaktikaning asosiy mohiyati ta'limning maqsadlari, mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini o'z ichiga oladi.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika“ asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining “Nemis o'qituvchilar o'qitish uchun yo'riqnoma” (1834-1835) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi.

O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, A.Ibodiyev, M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Saidazizov, R.Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik



turkiy xalqlarning shonu-shuxratini tiklash uchun uni ma'rifatli qilishdan o'zga yo'l yo'qligini to'g'ri belgiladi.

Chet tillarni o'rganish jarayonida ona tili darajasi bilan birga o'rganilayotgan tilning kommunikativ darajasi ham shakllanadi, bu ona tilini bilish darajasidan farq qiladi. Tilning lingvodidaktik – nazariy, amaliy-nazariy va amaliy o'rgatilishi chet tiliga o'rgatishning asosiy muammolaridan birini hal qiladi.

A. B. Builev lingvodidaktikani chet tillariga o'qitish nazariyasi va amaliyoti deb atab, u tillarga o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi deya ta'kidlagan. Tadqiqotchi, talabaning lisoniy shaxsi rivojlanuvchi xususiyatga egaligini qayd etgan. Shuningdek, O.L.Komenskaya "lisoniy shaxs nazariyasi turg'un constant tushuncha emas. U ham vertical (yangi darajalarni aniqlash hisobiga), ham gorizantal (mavjud darajalarni detallashtirish hisobiga) bo'ylab diversifikatsiya qilinishi mumkin" – deya fikr bildirgan. Bularning barchasi N. D. Galskova yo'nalishini tasdiqlaydi, qaysiki lingvodidaktika fan sifatida lisoniy shaxsning lingvokognitiv tuzulishini anglashi va ta'riflashi lozim, uning rivojlanishi, qonuniyatlarini asoslashi shuningdek ham o'zlashtirish/o'qitish obyektlarining o'ziga xos jihatlari, ham bu jarayonning barcha subyektlarining o'zaro ta'sirini asoslashi lozim deb hisoblaydi.

1. Yapon tilini o'rgatishda didaktikaning o'rni.

Zamonaviy didaktika yapon tilini o'rgatishda o'quv jarayonini samarali, o'quvchiga yo'naltirilgan va real hayotga mos qilishda muhim rol o'ynaydi. Yapon tili o'zining noyob yozuv tizimlari (ひらがな hiragana, カタカナ katakana, 漢字 kanji), murakkab grammatikasi, ijtimoiy kontekstga bog'liq nutq shakllari (masalan, 敬語 (keigo) — hurmat shakli) va chuqur madaniy ildizlari tufayli o'ziga xos yondashuv talab qiladi. Didaktika bu jarayonda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1) Tizimli o'qitish: Yapon tilining murakkab tuzilishini o'quvchilar uchun tushunarli va bosqichma-bosqich o'zlashtiriladigan qilib tashkil qiladi.

2) Madaniyatlararo aloqa: Yapon tilini o'rganish faqat til bilan cheklanmaydi, balki yapon madaniyatini, etiketini va ijtimoiy normalarini tushunishni ham o'z ichiga oladi.



- 3) Faol ishtirok: O'quvchilarni passiv o'rganishdan faol ishtirok etishga (masalan, rolli o'yinlar, loyihalar) o'tkazadi.
- 4) Texnologik integratsiya: Raqamli vositalar va onlayn platformalar orqali o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi.
- 5) Kommunikativ kompetensiya: O'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda yapon tilida muloqot qilishga tayyorlaydi. Zamonaviy didaktikaning yapon tilini o'rgatishdagi asosiy tamoyillari Yapon tilini o'rgatishda zamonaviy didaktika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:
- 6) Kommunikativ yondashuv: O'quvchilar yapon tilini real muloqot vositasi sifatida o'rganadi, xususan, ijtimoiy kontekstga mos nutq shakllarini (oddiy nutq, hurmatli keigo) qo'llashga urg'u beriladi.
- 7) Madaniyatlararo yondashuv: Yapon tilini o'rganish yapon madaniyatining an'analari, urf-odatlarini va qadriyatlarini o'z ichiga oladi.
- 8) Individual yondashuv: Har bir o'quvchining til o'rganish darajasi (boshlang'ich, o'rta, yuqori), maqsadlari (sayohat, biznes, akademik) va o'rganish uslubiga mos darslar tashkil qilinadi.
- 9) Faol o'rganish: O'quvchilar muhokama, loyiha ishlari, rolli o'yinlar orqali faol ishtirok etadi.
- 10) Texnologiyaga asoslanganlik: Mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

2. Yapon tilini o'rgatishda didaktik usullar va asosli misollar

Quyida yapon tilini o'rgatishda qo'llaniladigan zamonaviy didaktik usullar va ularning amaliyotdagi qo'llanilishiga doir batafsil misollar keltirib o'tamiz. Har bir usul yapon tilining o'ziga xos jihatlariga moslashtirilgan.

1. Kommunikativ usul. Bu usul yapon tilini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning so'zlashish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini muvozanatli rivojlantiradi. Yapon tilida ijtimoiy kontekstga mos nutq shakllarini (masalan, 敬語) o'rgatishga alohida e'tibor beriladi.

Misol uchun, Mijoz: すみません、メニューを見せていただけますか
? (Sumimasen, menyuu o misete itadakemasu ka?)



Ofitsiant: かしこまりました。こちらがメニューでございます。

(Kashikomarimashita. Kochira ga menyuu de gozaimasu.)

O'quvchilar guruhlarda o'z ssenariylarini yaratadi va sinfda taqdim etadi. Natijada o'quvchilar yapon tilida hurmat shaklini real kontekstda qo'llashni o'rganadi, muloqot qobiliyatlari rivojlanadi.

2. Vazifaga asoslangan o'qitish. O'quvchilarga muayyan vazifa beriladi, ular tilni shu vazifani bajarish uchun ishlatadi. Bu usul ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Misol uchun, o'quvchilarga "Yaponiyaga sayohat rejasi tuzish" vazifasi beriladi. Ular yapon tilida marshrut, transport (masalan, shinkansen), mehmonxona va diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot yozadi va taqdimot qiladi: 東京から大阪まで新幹線で行きます。所要時間は約2時間半です。(Tookyoo kara Oosaka made shinkansen de ikimasu. Shoyoo jikan wa yaku ni-jikan han desu.) O'quvchilar guruhlarda internetdan ma'lumot to'playdi, yapon tilida qisqa taqdimot tayyorlaydi va sinfda taqdim etadi. Natijada o'quvchilar tilni amaliy kontekstda qo'llaydi, tadqiqot va taqdimot ko'nikmalari rivojlanadi.

3. Muammoga asoslangan o'qitish. O'quvchilarga real hayotiy muammo taqdim etiladi, ular uni yapon tilida muhokama qilib, yechim topadi. Misol uchun, o'quvchilarga Tokio xaritasi beriladi, ularga muayyan manzilga (masalan, Shibuya chorrahasi) qanday borishni yapon tilida tushuntirish topshiriladi: 渋谷駅まで行くには、山手線に乗ってください。(Shibuya-eki made iku ni wa, Yamanote-sen ni notte kudasai.) O'quvchilar guruhlarda xaritadan foydalanib, yo'nalishlarni yapon tilida muhokama qiladi va qisqa taqdimot qiladi. Natijada o'quvchilar tilni amaliy kontekstda qo'llaydi, navigatsiya va muammoni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

4. Raqamli didaktika. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar yordamida yapon tili o'rgatiladi. Bu usul yapon tilining murakkab jihatlari (masalan, kanji)ni o'rganishni osonlashtiradi. Misol uchun, o'quvchilar "Wanikani" yoki "Anki" ilovalari orqali kanji belgilarini o'rganadi. Sinfda esa o'qituvchi "Kahoot" platformasida kanji bo'yicha viktorina o'tkazadi: Masalan: 木 (ki) so'zining ma'nosi nima? (Javob: daraxt) Faoliyat: O'quvchilar kanji belgilarini



sinfda jumalalarda ishlatadi, masalan:公園に大きな木があります。(Kooen ni ookina ki ga arimasu.)Natijada o'quvchilar kanji o'rganishni o'yin shaklida osonlashtiradi.

5. Flipped Classroom (Teskari sinf). O'quvchilar uyda videodars yoki materiallarni o'rganadi, sinfda esa muhokama va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Misol uchun, o'quvchilar uyda "Yapon tilidagi qo'shimchalar (は, が, を)" bo'yicha videodars ko'radi. Sinfda esa ushbu qo'shimchalarni ishlatib jumlar tuzadi: 私は毎日日本語を勉強します。(Watashi wa mainichi nihongo o benkyoo shimasu.) Natijada sinf vaqti samarali ishlatiladi, o'quvchilar grammatikani amaliyotda qo'llaydi.

6. Madaniyatlararo yondashuv. Yapon tili o'rganish jarayonida yapon madaniyatining muhim elementlari o'rgatiladi, bu tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, o'quvchilar "Yapon choy marosimi (茶道, sado)" haqida ma'lumot oladi, so'ng yapon tilida marosimning muhim jihatlari haqida taqdimot tayyorlaydi. 茶道は日本の伝統的な文化です。心の平和を大切にします。(Sadoo wa nihon no dentooteiki na bunka desu. Kokoro no heiwa o taisetsu ni shimasu.)Natijada o'quvchilar yapon madaniyatini chuqur tushunadi, tilni madaniy kontekstda qo'llaydi.

3. Yapon tilini o'rgatishda didaktikaning afzalliklari va qiyinchiliklari

Didaktikaning afzalliklari shundan iboratki, interaktiv usullar, madaniy loyihalar va raqamli vositalar o'quvchilarni qiziqtiradi. Tilni real hayotiy vaziyatlarda (masalan, restoranda, sayohatda) qo'llashga o'rgatadi. Yapon madaniyatini o'rganish tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Raqamli vositalar kanji va grammatikani o'rganishni osonlashtiradi. Qiyinchiliklari esa yapon tilining yozuv tizimlari (kanji) va hurmat shakllari o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Zamonaviy didaktik usullarni qo'llash uchun raqamli infratuzilma va malakali o'qituvchilar kerak bo'ladi. Yapon tilidagi ijtimoiy normalar va etiketni o'rgatish qo'shimcha vaqt talab qiladi.

4.Yapon tilida hurmat va iyerarxiyaning ifodasi



Yapon tili iyerarxiya va hurmatni aks ettirishda dunyodagi eng murakkab tillardan biridir. Bu, ayniqsa, 敬語(keigo, hurmat shakli) va ijtimoiy kontekstga mos iboralar orqali namoyon bo'ladi.

Hurmat shakli 3 ta asosiy shaklga bo'linadi:

1) 尊敬語(Sonkeigo): Boshqa odamning maqomini yuksaltirish uchun ishlatiladi. Masalan: 見る (miru, ko'rish) → Sonkeigo: ご覧になる (goran ni naru, ko'rish).

2) 謙讓語(Kenjougo): O'zini pastroq ko'rsatish orqali boshqalarga hurmat bildirish. Masalan: 言う (iu, aytish) → Kenjougo: 申し上げる (moushiageru, aytish).

3) 丁寧語(Teineigo): Umumiy odob nutqi, ijtimoiy masofani saqlash uchun ishlatiladi. Masalan: 行く (iku, ketish) → Teineigo: 行きます (ikimasu, ketaman).

Bundan tashqari yapon tilida bir xil so'z yoki ibora turli kontekstlarda boshqacha ishlatiladi. Yaponiyada 内 (uchi, ichki guruh) va 外 (soto, tashqi guruh) tushunchalari muhim. O'z guruhidagi odamlarga (oilangiz, do'stlaringiz) oddiyroq til ishlatiladi, lekin tashqi guruhdagi odamlarga (notanishlar, mijozlar) hurmat shakli ishlatiladi. Bunday holatni 先輩(sempai) va 後輩(kouhai) holatlarida ham uchratishimiz mumkin. Ishda yoki o'qishda tajribali (sempai) va yangi kelgan (kohai) o'rtasidagi munosabatlarda sempai odatda oddiy til ishlatadi, kohai esa hurmat shaklida gapirishi kerak.

Yapon jamiyatida iyerarxiya turli sohalarda o'z aksini topadi. Ish muhitida 上司 (joshi, boshliq) va 部下 (buka, xodim) o'rtasida aniq iyerarxiya mavjud. Boshliqlar qaror qabul qiladi, xodimlar esa ularning ko'rsatmalariga amal qiladi. Sempai-kohai: Yangi xodimlar tajribali xodimlarga hurmat ko'rsatadi. Sempai ko'pincha koh'aini o'rgatadi va yo'l ko'rsatadi. Bu 集団主義 (shudan shugi, guruhchilik) deb ataladi.

XULOSA

Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi biror predmet bo'yicha o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari



intilar ekan, ma'lum ishlarning bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Didaktik usullarning afzalligi o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshiradi, turli o'quv uslublariga moslashadi, bilimlarning amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga bu usul cheklovlardan ham holi emas. Har bir usul hamma o'quvchilar uchun bir xil samarali bo'lavermaydi. Ba'zi usullar qimmat resurslar talab qiladi. O'qituvchining malakasi usullarning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Larionova A.A. Elektron lingvodidaktika: yapon tili grammatikasida onlayn testning evristik imkoniyatlari [Elektron resurs] // Ta'lim texnologiyalari va jamiyat. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 April 2023 / Volume 4 Issue 4 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842806
2. Неверов С. В. Особенности речевой и неречевой коммуникации японцев // Национально-культурная специфика речевого поведения. М., 1977; Раздорский А. И. Национально-культурные особенности коммуникации в японском устном диалоге: дис. канд. филол. наук. М., 1981.
3. H.K.Turdiyeva "Xushmuomalalikning ifodalanishi: (o'zbek, fors, yapon tillari qiyosida)" Conference: Methods and Technics in teaching foreign language. Toshkent, 2021y.
4. Stavtseva I.V., Karmanova A.F. "Yapon tilining amaliy grammatikasini o'rgatish uchun onlayn yordamni ishlab chiqish" 2017, 20
5. 井出 幸子、かわなり 巫女 「日本の女性語と世界の女性語」 Г.С. 1984, №3
6. いまいづみ ただよし 「日本のけいご」 東京・1955ねん
7. 孝夫鈴木「言葉と文化」. 岩波新書 東京, 1973 – 220 pp.
8. 杉本祐子「きれいな言葉図解と好感度アップの敬語」 株式会社主婦の友社、東京、
2012 – 13pp.



9. 日中両国語におけるコミュニケーション・ギャップについての考察一断り表現を中心に一加納陸人・梅曉蓮.文教大学 言語と文化 第 15 号
- 10.ほもと きくお「美しい けいご」東京・1972ねん
11. みんなの日本語初級 1 (Minna no nihongo shokyu 1) 2007
12. みんなの日本語初級2 (Minna no nihongo shokyu 2) 2007
- 13.山本・今村 「日本のくらしと文化」東京・2006年